

# **BOLALAR MUSIQIY IDROKINI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUVLARNING O'RNI**

Karimov Saxob Baxromovich, o'qituvchi  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

[karimovsaxob1@gmail.com](mailto:karimovsaxob1@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'rta sinflarda musiqa darslarini fanlararo aloqadorlikda tashkil etish bo'yicha mavzular mazmun mohiyatidan kelib chiqib 5-7 sinflarda musiqa darslarida o'quvchilarning ruhiy-hissiy holatlari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** fanlararo aloqadorlik, musiqa darslari, o'quvchilar, ta'lim tizimi, jismoniy madaniyat, ritmik gimnastika, psixologik, sport, umumta'lim maktablari, o'qituvchi, musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish, musiqa savodi. mashg'ulotlar estetik tarbiya, hissiyot, idrok, kechinma, sezgi.

Musiqa va adabiy ta'limni muvoffaqiyatli fanlararo integratsiyalashuvni amalga oshirishda dars mashg'ulotlari bilan bir qatorda ularning mazmuni va shakli sharoitiga qarab belgilanadigan sinfdan tashqari ishlar ham katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni yozuvchilar, badiiy so'z ustalari va bastakorlar to'g'risidagi eshittirishlar, teleko'rsatuvlar, filmlar bilan tanishtirish ijodiy mayllarni-nimaga moyilliklarini aniqlash va qiziqishlarini to'g'ri yo'naltirishda alohida o'rin tutadi. To'garak mashg'ulotlarida: maqola, she'r, hikoya turli janrga mansub asarlar yuzasidan suhbatlar o'tkazish o'z navbatida musiqa darslarida ham umumiy mavzular o'rtasidagi uzviylikni taminlashga hizmat qiladi.

Ma'lumki musiqa san'ati o'z tarbiyasiga ko'ra, odamlar hayotini, ularning voqeylikka bo'lgan munosabatini va turlicha ichki kechinmalarni musiqiy tovushlar orqali, badiiy obrazlar vositasida yorqin tasvirlaydi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish hususiyati bilan nafosat tarbiyasining muhim manbai hisoblanadi. Musiqa san'atining ta'siri bolalar va o'smirlarda qanchalik erta boshlansa, ko'zlangan maqsadga erishish shunchalik osonroq bo'ladi.

Bizning yashayotgan hayotimizda musiqa san'ati bolalaligimizdan yonimizdan ketmaydi. Faqat qay tarzda qanday musiqalardan foydalanishimiz katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni: yozuvchilar, badiiy so'z ustalari va bastakorlar to'g'risidagi eshittirishlar, telako'rsatuvlar, filmlar bilan tanishtirish ijodiy filmlarni-nimaga moyilliklarini aniqlash va qiziqishlarini to'g'ri yo'naltirishda alohida o'rin tutadi. Ayniqsa to'garak mashg'ulotlarida: maqola, she'r, hikoya turli janrga mansub asarlar yuzasidan suhbatlar o'tkazish o'z navbatida musiqa darslarida ham umumiy mavzular o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashga hizmat qiladi.

Yuqorida biz ta'kidlaganimizdek musiqa san'ati o'z tarbiyasiga ko'ra, insonlar hayotini, ularning xar bir davrning o'ziga xos bo'lgan munosabatini va turli ichki kechinmalarini musiqiy tovushlar orqali, badiiy obrazlar vositasida yorqin tasvirlaydi. Musiqa san'ati orqali inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish hususiyati bilan nafosat tarbiyasining muhim manbai hisoblanadi. Musiqa san'atini idrok qilish qobilyati bolalar va o'smirlarda qanchalik erta boshlansa, ko'zlangan maqsadga erishish shunchalik osonroq bo'ladi. Bizning ish tajribamiz, va malakali o'qituvchi va

murabbiylarimizning fikri : Bolalikda qo'ldan boy berilgan narsani balog'at yoshida o'zlashtirish ancha qiyinlashadi. Yosh bolaning yuragiga badiiy asarlar eng yaxshi vositalar orqali yetib borsa, agar u tovushlar bo'yoqlarining inson hissiyotiga ta'sirini sezsa, u shunday bir madaniy pog'onaga ko'tariladiki, hech qanaqa boshqa ta'sirlar bilan bunga erishib bo'lmaydi. Bizning yashayotgan hayotimiz musiqa san'ati bolaligimizdan yonimizdan ketmaydi. Faqat qay tarzda qanday musiqalardan foydalanishimiz kerakligini o'quvchi yoshlarimizni to'g'ri ajrata olishlari kerak. Ushbu masalalarga to'g'ri javob berishimiz uchun biz o'qituvchilarimizga quydagi savollarni berdik:

1. Aziz bolalar siz qanday ashula va badiiy asarlarni sevib tinglaysizlar va uqiysizlar.

2. Aziz bolalar siz kelajakda yetuk inson bo'lib yetishishingizda musiqa darsida qaysi tanlagan ashula va o'qigan asarlarning mazmun mohiyatidan olib qaraganda siz uchun ibrat va namuna deb hisoblaysiz?

Agar tarixga bir nazar tashlasak A.S.Pushkinning enagasi Arina Radionova o'z oldiga Pushkinning buyuk shoir bo'lishini maqsad qilib qo'ymagan, u faqat unga xar-xil ertaklar va ashulalar aytib berar edi. Bularning oqibatida biz ko'rganimizday uning shoir bo'lishida katta o'rin topdi. Shu borada biz o'zimizga savol beramiz xalq qo'shig'imiz? Opalarimiz va buvijonlarimiz bizga qanday qo'shiqlarni kuylab berishgan? Kim hozir bularni eslay oladi? Bugungi kunda bizning ota-onalarimiz qanchalik band bo'lishmasin, o'z farzandlari uchun vaqtlarini ayamadan, ularning musiqiy tarbiyalariga ham alohida e'tibor bersalar yaxshi bo'lar edi. Sababi ming afsuski hozirgi kunlarda bizning kuzatishimiz shuni ko'rsatadiki, hozirgi bolalarning hayotiga asosan axborot kommunikatsiya vositalarining turli xil audio playerlar , disklar xalqimiz orasiga kirib keldi.

Bu tabiiy bir xol. Ammo yoshlarning o'z xalq og'zaki ijodi, san'atini bilmasligi, milliy ohanglarda badiiy obrazlar vositasidagi yorqin tasvirlari borligini sezmasligi achinarlidir, xozirgi yoshlar bizning milliy me'rosimizning eng yaxshi ashulalarini, sozlarini tushuna bilishlari lozim va o'z tariximizning qahramonlarini yaxshi hususiyatlarini ola bilishlari lozimdir.

Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan maqol bor. Har bir bola birinchi tarbiyani o'z ota-onasidan, oila a'zolaridan, o'z atrofidagi yaqin kishilardan oladi. Oiladagi ijobiy muhit, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, bir-biriga bo'lgan hurmat va e'tibor mehribonlik, o'zaro yordam va ularning musiqa san'atiga, adabiyotga bo'lgan munosabatlarni bolalarda dastlabki tushuncha va ko'nikmalarning rivojlanib borishida asosiy o'rin tutadi. Bolalarning shaxsini shakllanib borishida uning faoliyati jarayonida tarkib topadi. Zotan o'quvchining faoliyati juda maroqli, o'ziga xos go'zal va shakl jihatidan rang-barangdir. Bu xar-xil fazilatlar bolalarga xos bo'lgan doimiy ehtiyojga aylangandagina ulardagi faollik yanada ortadi. Maroqli va ma'naviy zavq beruvchi ana shu go'zal tuyg'u bolalar va o'quvchilarning ayniqsa, nafosat tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, bolada namoyon bo'ladigan madaniy, badiiy-estetik tarbiya muhim ma'naviy go'zallikka puxta zamin hozirlaydi. Bizning pedagogik kuzatuvlarimiz va o'z tajribamizdan kelib chiqib shu hulosaga keldikki o'quvchilarning ota-onlar majlislari bilan ishlashga ham alohida e'tibor berish zarur. Masalan: ota-onalar majlislarida bolalarni musiqaga jalb qilish uchun

uyda qanday sharoit yaratish lozim? O'quvchilarni uylarida ham sharoit bo'lishi kerakki, toki musiqa va adabiyot darslariga bolalar ko'proq qiziqishsin san'atimizga bo'lgan ixtiyorlarini bolalarning ijodiy kuchlarini butunlay qamrab olish darajasiga yetishsin. Bolalar xilma-xil musiqali fikrlar orqali har-xil oqimlarga hos musiqiy tilni o'zlashtiradilar, musiqa san'atini tushunishga, uni ifodalab olishga amalda o'rganishi va musiqa yozuvini o'zlashtirishadi. Bularning hammasi bolalar va o'smirlarning dunyoqarashini kengaytiradi va ularning dunyoqarashlarini boyitadi. Shunday qilib, musiqa san'atining shaxsga bo'lgan ta'siri har xil uslublar orqali amalga oshirish mumkin. Bular:

- a) Musiqa tinglash
- b) Ijrochilik orqali
- c) Musiqa yozuvini o'zlashtirish
- d) Musiqa san'atini targ'ibot va tashviqot qilish tartiblari va boshqalar.

Yuqorida aytib o'tilgan hamma uslublar bolalarning musiqiy estetik tarbiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning musiqiy madaniyatini boyitadi. Shunday qilib, biz bolalar musiqiy estetik tarbiyalash tizimiga tayanib bugungi kunda bor muammolarni hisobga olgan holda o'quvchi yoshlarga musiqaviy ta'sir etish nazariyasini tadqiq etish borasida musiqa estetik tarbiyalash jarayonida musiqaning adabiyot darslari bilan fanlararo integratsiyalashuvni qo'llashning aktual muammolariga bog'liq psixologik va ijtimoiy mexanizmlarni ko'rsatishga harakat qildik.

Ko'rinib turibdiki, musiqiy-ma'rifiy ishlar estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib o'quvchilarni his tuyg'ularni, did va idrokni tarbiyalashni yanada yaxshilashga muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Davlat ta'lim standartlari. T.:2020-yil
2. S.B.Karimov."Musiqa darslarini fanlararo aloqadorlikda tashkil etishning oziga xos uslublari". Alma mater Samarqand.2014-yil 2-kitob. 51-52-bet.
3. Karimov S. Musiqa darslarining fanlararo integratsiyalashuv jarayonidagi muammolari va yechilishi zarur bolgan vazifalar. OzMU xabarlari. 2022/1/5/1. Toshkent 2022.
4. Karimov S. "The importance of using interdisciplinary integration in shaping students knowledge and skills". Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). India 2021-yil. 8-avgust. 264-268 bet.
5. Karimov S. "Oquvchilarning bilm va malakalarini shakllantirishda fanlararo integratsiyalashuvni qollashning ahamiyati". Masofaviy talimni tashkil etishning pedagogic-psixologik jihatlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari toplami. Toshkent-2021-yil noyabr. 295-297-bet.
6. Karimov S. "Musiqa darslarini tabiat fani bilan ozaro bogliqlikda tashkil etishning oziga xos uslublari". "Xorijiy filologiya , adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik masalalari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Jizzax 2021-yil 23-fevral. 238-241 bet.
7. Karimov S. "Umumtalim maktablarida musiqa darslarini jismoniy harakatlar uygunligida tashkil etishning oziga xos uslublari". Osiyo sanati. Tom 1.№ 2. 2021-

yil. 05.17.Jurnal muzыki i iskusstva, izvlecheno ot <https://art.jspi.uz/index.php/art/article/view>.

8. Karimov.S “Content and Functions of Teaching Music Subjects”. International Journal of Multicultural and Multireligious understanding. Hamburg.Germany. June 2022.

9. E.Abdukarimova. Ilm ham jamiyet Ajiniyaz atindagi Nokis mamleketlik pedagogikaliq instituti “Texnologik loyihalash- musiqa mashgulotlarida samarali talim”. 2019 (№1) ISSN 2010-720X.

10. Elnoz Ismatillayevna Abdukarimova Aktualьnye vьzovy sovremennoy nauki. “Yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda xalq musiqa merosi qudratli tarbiya vositasi” iscience 2017 yil.